

SAB'AI SAYYOR" DOSTONINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



Abstract:

Tarix hukmi shunga guvohki, xalqchil, insonparvar va yuksak san'at namunasi bo'lgan asarlarga davlar sinovidan o'tib, yangidan yangi avlodlarga ma'naviyat va ma'rifat nurlarini taratib, ardoqli meros sifatida qadrlanadi. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy yaratgan bebabga badiy durdonalar ana shunday xushbaxt taqdirga ega. Yana shu ham haqiqatki, buyuk obidalarni bonyod eta olgan umr bezagi -mutafakkirlarning har bir so'zi inson va insoniyat, hayot va jamiyat haqidagi qarashlari go'zallik, nafosat borasida bildirgan mulohazalari qimmatli va qadrlidir. ...Zero, ular pok qalb va ezgu niyatning, zukko aql va benazir teran shuurning ummonidan yuzaga kelgan bo'lib, g'oyat kuchli umumlashma xususiyatga ega. Shu bois Navoiyning har bir so'zi hozir ham purma'n o'hkmat bo'lib jaranglamoqda, hozir ham bizga iibrat va saboq bo'lmoqda.

Author of the article:

**Vaxobova Mamlakatxon
Raximjonovna**

Workspace (Education subject)

**Andijon viloyati 55- umumiy o'rta ta'lim
maktabi ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi**

Bilamizki, bugungi yoshlar kuchli axborot oqimi ostida voyaga yetmoqda. Fan-texnika rivojlangan, axborotlashgan jamiyat bag'rida ulg'ayib, ularning to'liq imkoniyatlardan xabardor yoshlarning didi, dunyoqarashi bundan o'n yil oldingi yoshlarning estetik talablaridan tubdan farq qiladi. Bu tezkor rivojlanishlar ichida voyaga yetayotgan bola kitobga termulishdan ko'ra, tez va oson ma'lumot olishni ma'qul ko'rmoqda. Bu esa o'qituvchining, xususan, adabiyot o'qituvchisining zimmasiga juda katta mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Ana shunday sharoitda o'quvchilar qalbida kitobga, xususan, adabiyotga nisbatan mehr uyg'otish juda katta mehnatni talab qiladi. Yuqori sinfga endigina qadam qo'ygan 5-sinf bolasi mumtoz asar haqida endigina tasavvur hosil qilayotgani, bu olam uning uchun boshlang'ich sinfdagi kabi oddiy emas, balki anchayin murakkab ekanligini hisobga olgan holda rejalar tuzish, bu rejalar asosida bola ongida bu sohaga mehr uyg'otish, uni bu olamga yetaklab kirish o'qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Aslida bolada adabiyotga bo'lgan mehr avvalroq shakllanadi, buvisidan eshitgan ertaklari hatto adabiyotga taalluqli ekanligini ham bilmaydi. Bola boshlang'ich sinfa ham yodlagan she'rlarini aynan adabiyotshunoslikka taalluqli ekanligini bilmaydi. Albatta, maktabda adabiyot darslarini tashkil qilishda, o'qituvchi shaxsi yetakchi o'rinni egallaydi. Bu borada so'z ketganda, quyidagi fikrlar ahamiyatlidir: O'qituvchi shaxsiyatiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetini chuqr bilishi, uning metodikasini chuqr o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqr bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi, bolalarni shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Mumtoz asarlarni integrativ yondashuv asosida tahlil qilishda adabiyot darslarida yozuvchi hayoti va ijodi, shuningdek, mumtoz asarlarni o'rganishda ifodali o'qish mashg'ulotidan foydalanish zarur. Mumtoz janrlardagi adabiy asarlarni ifodali o'qish qoidalariga binoan ravon nutqda, ifodali tushunarli va jozibali tarzda o'qish yaxshi samara beradi. Asarni ifodali o'qiyotgan o'quvchi shu asarning mazmunini tinglovchiga yetkazishga, undan badiiy zavq olishga ta'sir ko'rsatadi. Adabiyot darslarida hamisha ifodali o'qishdan foydalaniladi. Agar dars ifodali o'qish sifatida tashkil etilgan bo'lsa, bu metod sifatida namoyon bo'ladi Agar dars ma'lum asar tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, darsda AKTdan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Key words:

«Development of science» international conference

Ayniqsa, bugungi axborot texnologiyalari taraqqiy etgan davrda o'quvchilarning adabiyot faniga, badiiy adabiyotga qiziqishini oshirish va ularda kitobxonlikni tarbiyalash o'qituvchidan yuksak dunyoqarash bilan birga adabiyotning boshqa fanlar bilan bog'liq tarzda o'rgatishni talab qilmoqda. Mumtoz asarlarni o'quvchi yaxshiroq tushunishi uchun ularga faqatgina nazariy bilimlarni ifodali o'qib berib kifoyalanmasdan o'quvchilarga mumtoz asarlar yuzasidan audio,video yoki taqdimot namoyish etish mumkin.

Buni Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni misolida ko'rib chiqamiz. O'qituvchi bu asarni o'quvchilarga tushuntirishda qiyinchilikka duch kelishi tabiiy, chunki asar tili hozirgi o'zbek adabiy tilidan ancha yiroq, shu sababli o'qituvchi asardagi so'zlar lug'ati bilan ishlaydi. Odatda lug'atdagi so'zlar yodlashga beriladi, bu usulning samarasi ham yaxshi, biz esa biroz boshqacharoq usulni tavsiya qilmoqchimiz, ya'ni dostondagi so'zlar lug'atini o'sha so'zlarga mos tasvirlar bilan ko'rsatib tushuntirishni taklif etamiz, masalan:



Adabiyot o'qituvchisining mumtoz asar tahliliga tayyorgarlik ko'rishida metodik usullarni tanlash uning o'zaro almashinuvini didaktik maqsad bilan muvozanatlashtiradi, bu esa o'z navbatida o'quvchilar faolligini yuqori darajada ta'minlashga sharoit yaratadi. To'g'ri qo'llanilgan usullar mumtoz asarga o'quvchilarda qiziqish va muhabbatni kuchaytiribgina qolmay, asar tahliliga oid ilmiy-nazariy bilimlar bilan birga boshqa fanlardan olingan bilimlarni xotirlash orqali ularni yanada chuqurlashtiradi. Shu vaqtgacha an'anaviy talimda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga,

«Development of science» international conference

mustaqil o'rganib, tahlil qilişlariga, hatto xulosalarni hamo'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Biz taklif etmoqchi bo'lgan usulda ham o'quvchi xulosani o'zi chiqaradi. Bunda "Sab'ai sayyor" dostoni asosida videofilm yoki multfilm ishlashni taklif qilamiz, chunki o'quvchi o'zi o'qigan hikoyatni harakatlar asosida multfilm yoki videofilmda ko'rsa, asarni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi va xulosani o'quvchining o'zi chiqaradi. Alisher Navoiyning purhikmat so'zları, so'nmas asarlari ta'limning barcha bosqichlarida o'tiladi, shu jumladan, "Sab'ai sayyor" dostoni ham ta'limning 7-sinf darsligiga kiritilgan bo'lib, falsafiy va ijtimoiy mushohadaga boy asar bo'lganligi uchun 3 soat vaqt ajratilgan. Darslikda "Sab'ai sayyor" dostonidan olingan parcha -"Mehr va Suhayl" hikoyasi keltirilgan. Asardagi vogelik shunchaki to'qima yoki uydurmallar emas, balki xalqning o'ziga xos mentallik xususiyatlari va madaniy qadriyatlarini badiiyat zamirida aks ettirgan bo'lib, bular o'quvchilarning o'zligini anglashga undaydi. Yuksak badiiy asarlarni o'qib o'rganish jarayonida o'quvchi asardagi voqealarni tahlil va tadqiq qilar ekan, bevosita shu qahramonlar orqali o'zini ham tahlil qiladi.

Asarni o'qish jarayonida kelib chiqqan ba'zi bir muammolarni bartaraf etish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun turli xil innovatsion texnologiyalarni kiritish lozim. Ular quyidagilar

"Izohini toping" metodi

Bu metodda o'quvchilar 6 yoki 7 kishidan iborat guruhlarga ajraladilar. O'qituvchi har bir guruh uchun alohida plakat tarqatadi. O'quvchilar plakatda yozilgan tushunchalaming izohlarini yozishlari kerak bo'ladi. Ularga ma'lum vaqt ajratiladi, o'quvchilar izohlarni yozib tugatgach, har bir guruhdan bittadan o'quvchi ketma-ketlikda o'qiy boshlaydi. O'qituvchi ularning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshiradi. Bu metod o'quvchining har bir bayt tabdilini o'qib, "Mazmuni shunday ekan-da", - deb o'tib ketishiga yo'l qo'ymaydi. O'quvchi bu metod orqali fikrlarning o'ziga xosligini tushunib yetadi. Masalan:

Adan		munfail	
Daler		sud	
Tanumandu		Sog'ar	
Tanumandu		Ibriq	

BILIM-RING" metodi

Bu metodda o'qituvchi o'quvchilar bilan individual tarzda ishlaydi. Bunda o'quvchilarga "Mehr va Suhayl" haqida 3 ta yolg'on va 1 ta haqiqat bo'lgan fikrlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar qaysi fikr to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekanligini topishlari kerak bo'ladi. Savollarga to'g'ri javob bergen o'quvchi bitta rag'bat kartochkasiga ega bo'ladi. Ajratilgan ma'lum vaqt ichida o'zlariga tegishli bo'lgan kartochkalarga ketma-ketlikda javob beradilar, belgilangan vaqt tugagandan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini tuzatadi va rag'bat kartochkasiga eng ko'p ega bo'lgan o'quvchi «Bilim-Ring»da g'olib deb topiladi, o'qituvchi muammoli vaziyatlarda umumlashgan xulosa yasaydi. Masalan:


«Development of science» international conference

1-kartochka.

1. Suhayl Adan viloyatida shahzoda edi
2. Mehr dengizdag'i qattiq bo'ron tufayli Jobirning asirasiga aylanadi
3. Shoir Mehrning tasvirini 9 baytda mohirona tasvirlaydi
4. Mehr so'zining ma'nosi "porloq yulduz"dir

"KAMALAK"

Bu metodda o'quvchilar 3 guruhg'a bo'linadilar, guruhlarga o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan rangli biletlar tarqatiladi. Rangli biletlar qaysi rangda bo'lса, o'quvchilar asar bosh qahramoni Shoh Bahrom uchun qurilgan rangli saroylarni va ular bilan hikoyatlarni navbatma-navbat sanashlari kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning bergan javoblarini to'g'ri yoki noto'g'riliqini tekshiradi. Bu metod o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshiradi. Asarda keltirilgan fikrlarni yodda saqlash va o'z mustaqil fikrlariga tayangan holda muayyan xulosaga kelishga yordam beradi.



"Arra" metodi

Pedagogik amaliyotda mazkur metoda kichik guruhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o'quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha "mutaxassis"ga aylanadi. So'ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) "mutaxassis"bo'lishi shart, mazkur "mutaxassis"lar o'zları egallagan bilimlarni xuddi "arra tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o'rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o'quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi "mutaxassis"lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi. O'quvchilar guruhlarga ajratiladi va guruhlar o'zlariga nom tanlaydilar.


«Development of science» international conference

O'quvchilar guruhlarga ajratiladi va guruhlar o'zlariga nom tanlaydilar

1	Guruh	"Tilshunoslar"
2	Guruh	"Adabiyotshunoslar"
3	Guruh	"Geograflar"
4	Guruh	"Botaniklar"
5	Guruh	"Musiqachilar"
6	Guruh	"Musavvirlar"
7	Guruh	"Matematiklar"
8	Guruh	"Tarixchilar"

"Suratlar so'zlaganda" metodi

Bunda o'qituvchi "Sab'ai sayyor" dostonidagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni alohida kartochkalarga yozib chiqadi, keyingi kartochkalarda esa shu so'zlar ma'nosini anglatuvchi suratlar beriladi, o'quvchi mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa so'zlarga mos suratlarni topishda qynalmaydi. Bu metod o'quvchining mavzuga nisbatan qiziqishini oshiradi va faolligini ta'minlab beradi, o'tilgan mavzu uning xotirasida yaxshi saqlanib qoladi.



«Development of science» international conference

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, bunday texnologiyalar hozirgi vaqtida ta'lif bosqichlarida adabiyot o'qitishning samaradorligini oshiradi. Ularni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlansa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. An'anaviy dars shaklining ayrim afzalliklarini saqlab qolgan holda uni ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman texnologiya va metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasining o'sishiga olib keladi. Adabiyot darslarida integratsiyadan foydalanish ta'lif samaradorligini oshirishga va o'quvchilarning tafakkurini o'sishiga olib keladi. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'llini izlagandagina o'quvchi haqiqatdan ham fikrlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Yusupova D. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011.
2. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати, –Тошкент: Фан, 1979.
3. Mavlonova R.A. Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. –Toshkent: G.G'ulom, 2013.
4. Umumiyl o'rta ta'lifning adabiyot fanidan davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017.
5. Niyozmetova R. H. Uzluksiz ta'lif tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish. –Toshkent: Fan, 2007.
6. Qozoqboy Yo'ldosh, Begali Qosimov, Valijon Qodirov. Adabiyot 7-sinfuchun darslik. –Toshkent: O'qituvchi, 2014.